
"Ayollar daftari"da turgan Oydinxon Najmiddinova 3 ta ish o'rin yaratdi, o'nga yaqin o'quvchilarga hunar o'rgatmoqda

"Huvaydo" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Oydinxon Najmiddinova qo'li gul chevar. Mahalladagi xotin-qizlar faoli xatlov davomida Oydinxon Najmiddinovaning oilaviy sharoiti, muammo va takliflarini o'rganib chiqdi. Fuqaroga subsidiya asosida tikuvchilik mashinasi ajratildi.

Ikki yarim yil davomida tikuvchilik sir-asrorlarini puxta egallagan Oydinxon hokim yordamchisining ko'magi bilan tadbirkorlik faoliyatini ham boshladi.

Hozirda mahalladagi doimiy ish bilan band bo'lmagan 3 nafar xotin-qizlarni ishga qabul qildi. Shuningdek, o'nga yaqin o'quvchilarga hunar o'rgatmoqda.

2023-04-03 15:22:35